



2023-yil. 2-son.

TIL VA ADABIYOT TA'LIMI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGINING
ILMIY-METODIK JURNALI

Elektron jurnal

НАУЧНО-МЕТОДИЧЕСКИЙ
ЖУРНАЛ МИНИСТЕРСТВА
ДОШКОЛЬНОГО И
ШКОЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ
РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Я **ПРЕПОДАВАНИЕ** ЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ

Электронный журнал

LANGUAGE AND LITERATURE TEACHING

SCIENTIFIC-METHODOLOGICAL JOURNAL OF THE MINISTRY
OF PRESCHOOL AND SCHOOL EDUCATION
OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Elektron jurnal

ISSN 2010-6664

M U N D A R I J A

USMON NOSIR TAVALLUDINING 110 YILLIGIGA

Beknazar Toshboyev. Sohir bog'ning iste'dod sohibi	2
--	---

TAHLIL

Maftuna Abdullayeva. Salbiy munosabat ifodalovchi ruhiy jarayon fe'llari	6
Abror Ochilov. Til - ma'naviyat komposi hamdir	8
Gulnoza Eshnayeveva. Psixolingvistikaning lisoniy ongni o'rganishdagi ahamiyati	9
Yulduz Mamadiyeva. Surxondaryo dialektida fitonimlarning fonetik, leksik xususiyatlari	10
Sanobar Mulkamonova. Abdulla Qahhor hikoyalarida badiiy detallarning ifodalanishi	13
Firuz Safarov. Istiqlol davrida o'zbek adabiy tilining me'yoriylashtirilishi	13
Dildora Pulatova. Barkamol avlod bolalar maktablarida o'quvchi-yoshlarni ma'naviy - madaniy dunyoqarashlarini rivojlantirish	16
Shaxnoza Sultonqulova. Shukur Xolmirzayev ijodida detaling o'rni	17
Izzatillo Taniqulov. Tinchlik va osoyishtalik - oliy ne'mat	18
Shuxrat Mardanov. Grammatikaga oid arab tilidagi qo'lyozmalar va ularning tavsifi	20
Fayzullo Yaxyoyev. Hamid Sulaymon - Navoiy qo'lyozmalari tadqiqotchisi	22
Kamoliddin Kadirov. Features of the lyrical poetry of the east	23
Ravshan Niyazov, Firuza Kurbanova. The main peculiarities of detective genre	26
Mahliyo Jakbarova. O'quvchilarda nutq so'zlash ko'nikmasini rivojlantirishda interfaol usullardan foydalanish	28
Zuhra Fayziyeva. Marosim nomlari onomastikasi	30

TILSHUNOSLIK

Charos Daminova. Comparative semantic analysis of paremiias expressing interpersonal relations in english and uzbek languages	32
Dilafroz Umarova. Types of conceptual meaning in linguistics	34
Oyniso Uralova, Zuhra Hazratova. Jurnalistika sohasi talabalarini o'qitishda kommunikativ kompetensiyalar: sotsiolingvistik kompetensiyaning o'rni	35
Rano Uzokboyeva. Consecutive interpreting: required skills of students	38
Shakhlo Abdullaeva. The difference of language and speech, and its significance for methodology	40
Uktam Abdinazarov. Learning of equine studies terminologies in english	42
Zebo Shuxratova, Nilufar Sadullayeva. Ingliz media matnlarida frazeologik birliklarning ifoda etilishi New York times gazetasidagi frazeologizmlar misolida	43

TADQIQOT

Marjona Xayrullayeva. Buxoro viloyat Vobkent tuman mikrotoponimlari bilan bog'liq atamalar tasnifi	45
Orzigul G'aniyeva, Aminova Nilufar. Jon Steynbekning "East of Eden" romanida oilaviy munosabatlar tasviri	47
Hatambey Sulaymonov. Adabiyotshunoslikda vaqt o'lchami va tasvir ifodasi	49
Muhayyo Kenjayeva, Nigora Normurodova. Ona tili darslarida didaktik usullardan foydalanishning ahamiyati	51
Murodova Muqaddas. Ingliz va o'zbek adabiyotida satira talqini	53
Sevara Qahromonova. 5- Sinf ona tili mashg'ulotlarida o'quvchilarning og'zaki nutqini baholash mazmuni	55
Anvarbek Turdialiyev. Qaratqich kelishigining qo'llanishi	56
Husnidin Suvanov. Anvar Suyunning "G'o'bdintog' hikoyalari" da milliy koloritning o'rni	58
Yunus Davidov. Ko'p ma'nodlilikning boshqa lingvistik hodisalar bilan munosabati	63
Shaxnoza Begiyeva. Rauf Parfning "Abdullajon" marsiyasida poetik sintaksis masalasi	65
Shoxjaxon Karimov. Atoqli otlar yasallishi va apellyativ konversiya	66
Uyg'unjon Turdimurodov. Xatirchi tumani toponimlarining yasallish xususiyatlari	68
Erkin Soliyev. Chet til o'qitishda kasbiy malakani shakllantirishga ilmiy yondashish	70
Muhayyo Soliyeva. Ma'nodosh so'zlarning asosiy xususiyatlari	73
Namoz Akhmedov. What is pragmatics?	75
Saidfozil Akmalxonov. Online platforms and equipment to work with students in online and offline modes	76
Sohila Aminova, Orzigul Ablakulova. Difficulties associated with developing listening skills based on paradigmatic vocabulary meaning	78
Mokhinur Yodgarova. Religious world in linguacultural world picture	79
Otajon Norov. Zamonaviy o'zbek she'riyatida islomiy g'oyalar talqini	81
Okila Razzakova, Nodira Hamidovna. Use of role-play method in teaching speaking in ESL classes	83
Abdivali Eshqobilov. Onomopoeika va tarjima masalalari pragmatik adabiyotshunoslik nazariyasi aspektida	86
Charos Hamrayeva. Ingliz tili fanini o'qitishda masofaviy ta'lim texnologiyalarining ahamiyati va samarasi	88
Gavbar Mellikova. Ingliz tilini o'zlashtirishda tinglab tushunish metodining ahamiyati	90
Hulkar Rajabova. Oilada kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda kitobxon onaning roli va ahamiyati	91

ЯЗЫКОЗНАНИЕ

Сайёра Ибрагимова. Псевдоним как антропонимическая единица	93
--	----

ЛЕКСИЧЕСКИЙ МАТЕРИАЛ

Дилдора Толипова. Слова-лакуны, связанные с сельским хозяйством	95
---	----

НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ

Эльдар Гиздулли. Способы создания постапокалиптической пандемийной среды в романе Яны Вагнер «Вонгозеро»	97
--	----

ИЗ ИСТОРИИ СЛОВ

Марина Цой. Причины и последствия возникновения двуязычия в Московской Руси	99
---	----

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining Filologiya bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsija etilgan ilmiy nashrdir.

Marjona Xayrullayeva,
BuxDU o'zbek tilshunosligi kafedrasida o'qituvchisi

BUXORO VILOYAT VOBKENT TUMAN MIKROTOPONIMLARI BILAN BOG'LIQ ATAMALAR TASNIFI

Tayanch tushunchalar: *toponim, topofarmant, indikator, topoasos, toponimik aniqlagich, toponegiz, topotoponim, gidrotoponim, etnotoponim, antropotonim.*

Ключевые слова: *топоним, топоформант, индикатор, топонимическая основа, топонимический уточнитель, топонимез, гидротопоним, этнотопоним, антропотопоним, топотопним.*

Basic concepts: *toponym, topofarmant, indicator, topoasos, toponymic identifier, toponymy, topotoponymy, hydrotoponymy, ethnotoponymy, anthropotoponym.*

Annatsiya: Toponimlar tarkibida topoasos, topofarmant va indikatorlar, odatda, u yoki bu darajada qo'llanadi. Ularsiz joy nomlarining etimologik tadqiqi haqida gapirib bo'lmaydi. Chunki bir toponim faqat topoasosdan iborat bo'lsa, boshqa biri topoasos va topofarmant ko'inishida, uchinchi toponimda esa topoasos va topofarmant yoki topoasos, topofarmant hamda indikator ko'inishlarida uchraydi. Mana shularning ma'nolari birlashidan joy nomining ma'nosi shakllanadi. Ushbu maqolamizda mana shunday atamalarni imy tahliliga tortganmiz.

Аннотация: В составе топонимов применяются в той или иной степени топоформанты, индикаторы и топонимические основания. Без таких основ не возможно говорить об этимологических исследованиях. Так как одни основаны на топонимических основах, а другие как на топонимических основах так и видах топоформантах, а третьи как на топоформантах так и виде индикаторов. На основе таких слияний формируются названия мет и местности. Статья посвящена научному анализу таких терминов и названий.

Abstract: *toponyms include topoasos, topofarmant and indicators, usually to one degree or another. Without them, it is impossible to talk about the etymological study of place names. Because one toponym consists only of topoasos, another toponym has topoasos and topofarmant, the third toponym has topoasos and topofarmant and indicator. The meaning of the name of the place is formed from the combination of these meanings. In this article, we have taken such terms into scientific analysis.*

Lug'aviy asoslar toponimlarning tarkibiga ko'ra topoasos, indikator ko'inishidagi lug'aviy asoslar deb ikkita guruhga bo'lindi. Shu o'rinda *lug'aviy asoslar* tushunchasi turdosh so'z va topoformantlarni anglatishi hisobga olinsa, u turdosh otlardan farqlanadi. Qachonki, toponimlarning apellyativlari ham etimologik tahlilga tortilsa, shundagi toponimlarning tadqiqida muvaffaqiyatga erishish mumkin bo'ladi. Nomlarni nazariy va amaliy jihatlardan tadqiq qilishda ularning lug'aviy asos – (apellyativ)larga to'g'ri nidan-to'g'ri murojaat qilingan tadqiqotlar ham mavjud. Lug'aviy asoslar turdosh otlar bilan birga sifat, olmosh, fe'l, ravish kabi so'z turkumlariga oid so'zlarni, shuningdek, topoformantlarni ham o'zida mujassamlashtiradi. Mana shularning majmuini lug'aviy asoslar deyish o'rinli bo'ladi. Toponimlar tarkibida topoasos, topofarmant va indikatorlar, odatda, u yoki bu darajada qo'llanadi. Ularsiz joy nomlarining etimologik tadqiqi haqida gapirib bo'lmaydi. Chunki bir toponim faqat topoasosdan iborat bo'lsa, boshqa biri topoasos va topofarmant ko'inishida, uchinchi toponimda esa topoasos va topofarmant yoki topoasos, topofarmant hamda indikator ko'inishlarida uchraydi. Mana shularning ma'nolari birlashidan joy nomining ma'nosi shakllanadi. Topoasos toponimlarning yuzaga kelishi uchun asos bo'ladi. Ular turli tillarning so'zligidan (asosan, turkiy, fors – tojik, arab) tashkil topgan: *Rohkent, Pirmast, Xargo'sh, Xayrobodcha, Chuqurko'cha, Halvogaron, Murdasha'ylar, Usuniko'l, Xo'jarabot, Boboshayx, Beshrabot,*

Sariosiyl, Toqido'z, Rabotobod, Asbobsoz, G'aribshoh, Yangimasjid, Qumrabot, Sarikor, So'fidehqon, Cho'rikalon, Chorrabot, Talligandum, Mirsulaymon, Ko'lxatib, Astarbof va boshqalar.

Topofarmant va toponimning shakllanishi jarayonida ishtirok etgan qo'shimchalar jumlasiga kiradi. Ular, asosan, sodda qo'shimchalardan iborat topoformantlar sanaladi: *-chi, -lik, -on (-yon), -cha, -lar* va boshqalar: *Arobosozlar, Asbobsozlar, Baqqolon, Baxshiyon, Dukchilar, Arablar, Xo'jalar, Kurton, Mavnilar, Maxsumlar, Nonvoylar, Sartaroshlar, Qirg'izon, Qo'qincha, Teraklik, Xayrobodcha, Eshonlar, So'filar* kabi.

Tuman hududida *-kent, -obod, -rabot, -lepa, -xona* topoformantli: *Kumushkent, Rohkent, Yangikent, Bahrinobod, Mo'minobod, Kaltarabot, Oqrabot, Pirmastobod, Rabotobod, Xayrobodcha, Beshrabot, Qumrabot, Xosrabot, Xo'jarabot, Teshektepa, Arabxona* toponimlar uchraydi.

Kuzatishlarimizcha, topoformantlar nafaqat toponim tarkibida keladigan formant, shu bilan birga toponim yasashda ham xizmat qiladi. Mana shu holga ko'ra topoformantlarni ikki guruhga bo'lib o'rganish lozim:

1. Asl topoformantlar. Ular toponim tarkibida qo'llanadi, ammo yasovchilik xususiyati yo'q. *Dukchi* kabilardagi qo'shimchalar shunday topoformantlar sanaladi.

2. Yasovchi topoformantlar. Bular toponimning shakllanishida yasovchilik xususiyatiga ega bo'ladi: *Asbobsozlar, Arabosozlar, Gulzor* va boshqalar.

Tadqiqot



M. Murzayev "Очерки топонимии" kitobida indikatorning toponimga xos belgi-xususiyat va holatlarni ifodalaydigan so'z hisoblanishini ta'kidlagan¹. Z. Do'simov va X. Egamovlar "Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati" kitobida esa bu terminni: «Indikator – toponimlar tarkibida kelib, obyektning xarakteri, xususiyati, soni va boshqalarni ko'rsatuvchi so'z. Masalan, toponimik indikatorlar: *qishloq, daha, dastf, cho'l*. Gidronomik indikatorlar *ko'l, daryo, aniq* kabilar. Lotincha "indikos" «*ko'rsatmoq*» so'zidan yasalgan², deb ikkita guruhga bo'lib ta'riflashgan. Indikatorni toponimlar toponim – kompozitlar deb ham o'rganilgan va ular toponimik, gidronimik, funktsional indikatorlar deb uchga bo'lingan. T. Nafasov: «Indikator joy nomi yasashda qatnashib, uning tarkibida obyekt turini bildiradigan so'z: *buloq (Toshbuloq), qishloq (Kattaqishloq)*», deb uni lingvistik jihatdan izohlagan³. P. Gulomov "Jug'rofiya atamalari va tushunchalari izohli lug'ati"da ushbu termin haqida «Indikator (toponimikada) toponimlarni hosil qiluvchi mahalliy geografik terminlar: *qum, tepa, daryo, suv, kent va boshqalar*», degan ta'rifni geografik jihatdan bergan⁴.

Bizningcha, bu terminni toponimlar tarkibidagi xususiyatlaridan kelib chiqib, *toponimik aniqlagich* ham deyish mumkin. Biroq bu binkmalii terminni qo'llashdan ko'ra, *indikator* terminini ishlatish har jihatdan o'rinni. Demak, maskur termin haqidagi aytilgan fikrlar lingvistik va geografik jihatlardan bir-birini to'ldiradi. Sababi, ular indikatorning obyektning belgi-xususiyati, xarakteri, soni, turi kabilarni ko'rsatuvchi so'zligi va mahalliy geografik terminligini ko'rsatib turibdi. Indikatorlar toponimlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, *G'uddim tog'i, Molguzar tog'i* toponimlarida *tog'* lug'aviy asosi indikator vazifasini bajargan. Ular quyidagicha tarzda qo'llanadi:

1. Indikator(lar) toponim tarkibida keladi: *Odoqariq, Mahallai Imomqozixon, Teshiktepa, Kumushkent, Rohkent, Yangikent, Bahrinobod, Beshrabot, Mo'minobod, Kaltarabot, Oqrabot, Pirmastobod, Rabotobod, Xayrobodcha, Qumrabot, Xosrabot, Xo'jarabot, Arabxona* kabilar.

2. Indikator(lar)ning o'zi toponim bo'lib keladi: Rabotobod (toponimning har ikkala qismi ham indikator sanaladi). Shunday toponimlarning mavjudligini toponimik misollar vositasida Z. Do'simov va M. Tillaeva ham tasdiqlashgan.

Ular to'plab o'rganilgan besh mingdan ortiqroq toponimlar misolida kuzatilib, qo'llanish darajasiga ko'ra uchta guruhga bo'lindi:

1. Ko'p qo'llanadigan indikatorlar: *kent, obod, rabot, xona, tepa, aniq* kabilar.

2. Nisbatan kam ishlatiladigan indikatorlar: *shahar, ko'cha, bozor, bog', adir, mahalla, guzar* va boshqalar.

3. Kam qo'llanadigan indikatorlar: *qabriston, mozor, cho'l, cho'qqi, tog', tosh, ko'l, qoya*.

Bulardan bilinib turibdiki, mamlakatimiz toponimlaridagi indikatorlar fors-tojik, arab va turkiy tillarga old so'zlardan tashkil topgan. Demak, toponimlar tarkibida-

gi topoasos, topoformant va indikatorlar ularni etimologik tahlil hamda tadqiq qilishga yordam beruvchi vositalar jumlasiga kiradi.

Toponimlarning aksariyati asosida turdosh leksika yotadi. Vobkent tumani hududidagi toponimlar tarkibida bunday birliklarning quyidagilar uchraydi:

1. Hududning landshaftini ifoda etuvchi toponegizlar: Teshiktepa

2. Geografik obyektning joylashish o'rniga ishora qiluvchi toponegizlar: *Jo'yodiq, Miyona Arabxona, Sharqiy Beshrabot, Sharqiy Guliston, Sharqiy Qatag'on, G'arbiy Beshrabot, Chuqurko'cha, Yuqori Xo'jarabot, Yuqori Xosrabot, Yuqori Sanosiy, Yuqori Cho'rikalon, Yuqori So'filar, Quyi Nayman, O'rta Arablar, Yuqori Bo'yabot, Quyi Xalajiyon, Yuqori Yangikent* va boshqalar.

3. Geografik obyektning hajmini ifoda etuvchi toponegizlar: *Katta Astarbof, Katta Arablar, Katta Beshrabot, Katta Oqrabot, Katta Saroy, Katta Qumrabot, Katta Xo'jalar, Kichik Beshrabot* va boshqalar.

4. Obyektning miqdorini ko'rsatuvchi toponegizlar: *Yakkarabot* va boshqalar.

5. Obyektning paydo bo'lishi davriga ishora qiluvchi toponegizlar: *Eski Xalach, Yangikent, Yangimasjid, Yangihayot* va boshqalar.

6. Obyekt va joyning xususiyatini baholash ma'nosiga ega bo'lgan toponegizlar: *Toshloq Arabxona, Tallikulo'h*,

7. Hududning o'simliklar dunyosi (flora)ni ifoda etuvchi topoasoslar: *Anjirbog', Asbobsozlar, Astarbof, Baxshiyon, Bodomcha, Dukchilar, Gulzor, Chorbog'kent, Chorbog'inav, Teraklik, Yuqori Bo'yabot, Chitgaron*, va boshqalar.

8. Kasb-kor bilan bog'liq topoasoslar: *Asbobsozlar, Astarbof, Arabasozlar, Baqqolon, Baxshiyon, Dukchilar, Halvogaron, Murdasha'ylar, Nonvoylar, Yuqori Bo'yabot, Chitgaron, Sartaroshlar, Toqido'z* va boshqalar.

9. Aholining etnik xususiyatini aks etgan topoasoslar: *Eshonlar, Katta Arablar, Katta Saroy, Mavrilar, Qatag'on, Qipchoq, Qirg'izon, Qo'ng'iro't, Totor, Tojiklar, O'zbekon* kabi.

Asosida atoqli ot toponegizlar yotuvchi toponimlar mavjud. Bir turdagi atoqli otning boshqa tur vasifasiga o'tish tilshunoslikda keng tarqalgan hodisadir. Bunda atoqli ot o'ziga asos bo'lgan apellyativ negizdan yanada uzoqlashadi, ba'zi hollarda ma'nosiga ko'ra umuman dahldor bo'lmay qoladi.

Atoqli otlar tizimida atoqli otlarning o'zaro bir-biriga o'tish keng tarqalgan bo'lib bu xususiyat turli ko'rinishga egadir. Yangidan yasalayotgan toponimga qanday atoqli ot toponegizlik vazifasini o'tayotganligiga ko'ra, yangi nom quyidagicha ataladi:

1) toponimga kishining ismi va familiyasi, laqabi, taxallusi asos bo'lsa – antropotoponim; 2) toponimga urug', qabila, xalq, millat nomi yoki o'sha etnik gu-

ko'ra, indikator terminini ishlatish har jihatdan o'rinli. Demak, maskur termin haqidagi aytilgan fikrlar lingvistik va geografik jihatlardan bir-birini to'ldiradi. Sababi, ular indikatorning obyektning belgi-xususiyati, xarakteri, soni, turi kabilarni ko'rsatuvchi so'zligi va mahalliy geografik terminligini ko'rsatib turibdi. Indikatorlar toponimlarning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, *G'uddim tog'i*, *Molguzar tog'i* toponimlarida *tog'* lug'aviy asosi indikator vazifasini bajargan. Ular quyidagicha tarzda qo'llanadi:

1. Indikator(lar) toponim tarkibida keladi: *Odoqariq*, *Mahallai Imomqozixon*, *Teshiktepa*, *Kumushkent*, *Rohkent*, *Yangikent*, *Bahrinobod*, *Beshrabort*, *Mo'minobod*, *Kaltarabot*, *Oqrabot*, *Pirmastobod*, *Rabotobod*, *Xayrobodcha*, *Qumrabot*, *Xosrabot*, *Xo'jarabot*, *Arabxona* kabilari.

2. Indikator(lar)ning o'zi toponim bo'lib keladi: *Rabotobod* (toponimning har ikkala qismi ham indikator sanaladi). Shunday toponimlarning mavjudligini toponimik misollar vositasida Z. Do'simov va M. Tillaeva ham tasdiqlashgan.

Ular to'plab o'rganilgan besh mingdan ortiqroq toponimlar misolida kuzatilib, qo'llanish darajasiga ko'ra uchta guruhga bo'lindi:

1. Ko'p qo'llanadigan indikatorlar: *kent*, *obod*, *rabot*, *xona*, *tepa*, *ariq* kabilari.

2. Nisbatan kam ishlatiladigan indikatorlar: *shahar*, *ko'cha*, *bozor*, *bog'*, *adir*, *mahalla*, *guzar* va boshqalar.

3. Kam qo'llanadigan indikatorlar: *qabriston*, *mozor*, *cho'l*, *cho'qqi*, *tog'*, *tosh*, *ko'l*, *qoya*.

Bulardan bilinib turibdiki, mamlakatimiz toponimlaridagi indikatorlar fors-tojik, arab va turkiy tillarga old so'zlardan tashkil topgan. Demak, toponimlar tarkibida-

Yangihayot va boshqalar.

6. Obyekt va joyning xususiyatini baholash ma'nosiga ega bo'lgan toponegizlar: *Toshloq Arabxona*, *Tallikulo'h*,

7. Hududning o'simliklar dunyosi (flora)ni ifoda etuvchi topoasoslar: *Anjirbog'*, *Asbobsozlar*, *Astarbof*, *Baxshiyon*, *Bodomcha*, *Dukchilar*, *Gulzor*, *Chorbog'kent*, *Chorbog'inav*, *Teraklik*, *Yuqori Bo'yirabof*, *Chitgaron*, va boshqalar.

8. Kasb-kor bilan bog'liq topoasoslar: *Asbobsozlar*, *Astarbof*, *Arabasozlar*, *Baqqolon*, *Baxshiyon*, *Dukchilar*, *Halvogaron*, *Murdasho'ylar*, *Nonvoylar*, *Yuqori Bo'yirabof*, *Chitgaron*, *Sartaroshlar*, *Toqido'z* va boshqalar.

9. Aholining etnik xususiyatlari aks etgan topoasoslar: *Eshonlar*, *Katta Arablar*, *Katta Saroy*, *Mavrilar*, *Qatag'on*, *Qipchoq*, *Qirg'izon*, *Qo'ng'iro't*, *Totor*, *Tojiklar*, *O'zbekon* kabi.

Asosida atoqli ot toponegizlar yotuvchi toponimlar mavjud. Bir turdagi atoqli otning boshqa tur vasifasiga o'tish tilshunoslikda keng tarqalgan hodisadir. Bunda atoqli ot o'ziga asos bo'lgan apellyativ negizdan yanada uzoqlashadi, ba'zi hollarda ma'nosiga ko'ra umuman dahldor bo'lmay qoladi.

Atoqli otlar tizimida atoqli otning o'zaro bir-biriga o'tish keng tarqalgan bo'lib bu xususiyat turli ko'rinishga egadir. Yangidan yasalayotgan toponimga qanday atoqli ot toponegizlik vazifasini o'tayotganligiga ko'ra, yangi nom quyidagicha ataladi.

1) toponimga kishining ismi va familiyasi, laqabi, taxallusi asos bo'lsa – antropotoponim; 2) toponimga urug', qabila, xalq, millat nomi yoki o'sha etnik gu-

ruhlarning jamoaviy laqabi asos bo'lsa – etnotoponim; 3) toponimga kosmik obyektlar (*Oy*, *Quyosh*, *Sayyora*, *Yulduz* va boshqalar) nomi asos bo'lsa – kosmotop-

onim; 4) toponimga toponimlar (joy nomlari) asos bo'lsa – topotoponim; 5) toponimga suv obyektining nomi (gidronimlar) asos bo'lsa – gidrotoponim deb yuritiladi.

1. Мурзаев Э.М. Очерки топонимики. –М., Мысль, 1974, -382 с.
2. Дўсумов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли лугати. - Т.: Ўқитувчи, 1977.
3. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. Toshkent, 2009, 396-b.
4. Фуломов П. Жуурофия атамалари ва тушунчалари изоҳли лугати. –Т., Ўқитувчи, 1994. -140

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Qorayev S. Toponimika. T.: "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. 2006, 46-b.
2. Бўриев С. Топонимик қонуниятлар хусусида // Материалы VII съезда географического общества Узбекистана. – Тошкент, 2006 –5.84–85.
3. Қиличев Б. Бир топоформат ҳақида // Филология масалалари. Т.: 2007.
4. Ҳожиёв А. Тил қурилишининг асосий бирликлари юзасидан мулоҳазалар// Ўзбек тили ва адабиёти. 2004, 5-сон, 33-43-б.
5. Дўсумов З., Эгамов Х. Жой номларининг қисқача изоҳли лугати. - Т.: Ўқитувчи, 1977.
6. Нафасов Т. Ўзбекистон топонимларининг изоҳли лугати. Т.: Ўқитувчи. 1988. 165-б.
7. Nafasov T. Qashqadaryo qishloqnomasi. Toshkent, 2009, 396-b.

G'anliyeva Orzigit Khayriddinova,
Buxoro davlat universiteti f.f.f.d (PhD)
Aminova Nilufar Bahridinova,
Buxoro Davlat Universiteti
2- bosqich magistranti

JON STEYNBKING "EAST OF EDEN" ROMANIDA OILAVIY MUNOSABATLAR TASVIRI

Annatsiya: Mazkur maqolada romanda jamiyatning kichik bir bo'lagi hisoblangan oiladagi o'zaro munosabatlar tahliliga tortiladi. "East of Eden" romanining bosh g'oyasi oila hisoblanib, yozuvchi oiladagi munosabatlar, ziddiyatlar va kelishmovchiliklar inson taqdiriga ta'sir etish darajasini o'z asarida ochib bergan va hayotda yaxshilik va yomonlik doimo yonma-yonligini asar qahramonlari timsolida tasvirlagan.

Tayanch tushunchalar: Jon Steynbek, Amerika adabiyoti, roman, realizm, obraz, oila, jamiyat, qahramon, munosabat.

Har bir yozuvchi yaratgan asarida o'zi yashagan davrning ruhiyati, ijtimoiy holati va muammolari haqida fikr talib o'tadi. Iltimos, roman va adabiyoti rivojining buni nuqtasida, nima zararli va nima foydali energiyasini namoyon qilish, bilan qancha turadigan, erkinlikka tash-

ganiga qaramay, ular hozirgi davrga qadar mashhur bo'lib qolmoqda. Uning romanlari qiziqarli personajlar va hikoyalar satrlari bilan to'ldirilganligi bilan doimo o'quvchilarni o'ziga jalb qiladi. Nafaqat bu, balki Jon Steynbek hikoyada sodir bo'layotgan voqealarni tas-